

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'QITUYCHI NUTQI MADANIYATI

**BTM kafedrasining katta o'qituvchisi
F.Husainovanning Ilmiy – uslubiy ishlar
majmuasi**

Bilim sohasi: 100000 - Ta'lim
**Ta'lim sohasi: 140000 - O'qituvchilar tayyorlash va
pedagogika fani**

**Bakalavriat yunalishi: 5141600 – boshlangich ta'lim va sport tarbiyaviy
ish.**

Qo'qon – 2011

Ushbu ishchi uquv dasturi O'zROO'MTVning 2002-yil 10- avgust duyruqi bilan tasdiqlangan DTS asosida va tayanch oliy uquv yurti ToshDPU tomonidan tavsiya qilingan 2006 yildagi namunaviy dastur asosida tuzilgan.

Dastur Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashining 2011 yil 1 – yig'ilishida ko'rib chiqilgan.

Ushbu ishchi o'quv dasturi kafedraning 2011 yil 1- majlisida muhokama etilgan.

O'quv bo'limi boshlig'i: _____ A. Turg'unov
Fakultet dekani : N. Erkaboeva

Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrasi mudiri:

Isaqov Z.

Tuzuvchi:

Husainova F.

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`lim vazirligi
Muqimiy nomidagi Qo`qon Davlat Pedagogika Instituti

Tasdiqlayman
O`quv ishlari prorektori:
_____ D. Akbarov
«_____» _____ 2011yil

O`QITUVCHI NUTQI
MADANIYATI
fanidan ishchi dastur

Bilim sohasi:	100000 - Ta`lim
Ta`lim sohasi:	140000 - O`qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani
Bakalavriat yunalishi:	5141600 – boshlangich ta`lim va sport tarbiyaviy ish.

Qo`qon -20 11

Ushbu ishchi uquv dasturi O'zROO'MTVning 2002-yil 10- avgust duyruqi bilan tasdiqlangan DTS asosida va tayanch oliy uquv yurti ToshDPU tomonidan tavsiya qilingan 2006 yildagi namunaviy dastur asosida tuzilgan.

Dastur Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashining 2011 yil 29-avgustdagi 1 – yig'ilishida ko'rib chiqilgan.

Ushbu ishchi o'quv dasturi kafedraning 2010 yil 30-avgustdagi 1- majlisida muhokama etilgan.

O'quv bo'limi boshlig'i: _____ A. Turg'unov
Fakultet dekani : N. Erkaboeva

Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrasi mudiri:

Isaqov Z.

Tuzuvchi:

Husainova F.

1. “O’qituvchi nutq madaniyati” faniga qo’yilgan DTS talablari

Dasturda o’qituvchi nutq madaniyati fanining maqsadi va vazifasi, ushbu kursning tilshunoslik fani bo’limlari bilan aloqasi, nutq madaniyatini o’rganish tarixi, til madaniyati va nutq madaniyati tushunchasi, nutqning asosiy kommunikativ sifatлари: to’g’rilik, aniqlik, mantiqiylik, ta’sirchanlik, ifodalilik kabilar haqida ma’lumot beriladi.

1. “O’qituvchi nutq madaniyati” fanining asosiy maqsadi bo’lajak mutaxassislarга madaniy nutq haqida to’la tasavvur berish, ularda adabiy nutq malakalarini shakllantirishdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar hal etiladi:

- madaniyat va uning inson jamiyatida tutgan o’rni;
- nutq va uning shakllari;
- nutq texnikasi;
- nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan aloqasi;
- nutqiy faoliyat haqida to’g’ri tasavvurga ega bo’lish;
- nutq madaniyatining nazariy asoslari;
- nutq madaniyatining kommunikativ belgilari;
- nutq madaniyatining stilistik normalari;
- nutq madaniyati va adabiy til;
- nutq madaniyatining ta’lim taraqqiuidagi o’rni;
- ilmiy texnik terminologiya va nutq madaniyati;
- notiqlik san’ati asoslari;
- nutq madaniyati takomillashtirish yo’llarini bilish, malaka hosil qilish va amalda qo’llay olish;
- ifodalarni to’g’ri tuzish;
- nutqni mantiqli, aniq ifodalay olish;
- soha terminlarini terminlarini bilish;
- sof adabiy tilda gaplasha olish;
- ta’lim jarauonida etiketlarga rioya qilish;
- nutqlik san’atini namorish qila olish ko’nikmalariga ega bo’lishi lozim;

2. Talabanning bilim, malaka va ko’nikmalariga talabalar mazkur kursni o’rganish natijasida talaba quyidagilarni bilishi zarur:

- nutq madaniyati tarixi, Sharq va G’arb olimlari, adiblari, jamoat arboblarning bu boradagi qarashlari;
- adabiy til norma (me’yor)lari;
- madaniy nutqqa ko’yiladigan talablar;
- nutq uslublari va nutq madniyatimasalalari;
- nutq madaniyati va notiqlik san’ati.

Mazkur kurs ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida o’rganilishi nazarda tutilgan. Ma’ruzalarda talabalarga bu fanga oid nazariy ma’lumotlar berilsa,

amaliy mashg'ulotlar davomida madaniy nutq ko'nikmalarini hosil qilishga e'tibor qaratiladi.

1.2. "O'qituvchi nutq madaniyati" kursini o'qitishda talabalarning o'zbek tilshunosligi, falsafa, mantiq, uslubshunoslik kabi fanlardan egallagan bilimlariga asoslanadi.

1.3. Ta'lim sifatini oshirish uchun texnik vositalar: audio-video, kino materiallari, kompyuterlar, badiiy asrlardan parchalar; zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, xususan, "Aqliy hujum", "Kartochkaning yarimini top", shuningdek, "Venn halqachalari", "Insert", "Klaster" kabi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

1.4. Fanni o'qitish semesterlari va uslubiy ko'rsatmalari. Nutq madaniyati kursi 5-semestrda o'tiladi.

Umumiy va o'quv ishlari bo'yicha hajmi.

Ma'ruza: 12 soat

Must ta'lim 23 soat

Amaliy mashg'ulot: 18 soat

Jami: 63 soat

2. Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish 5141600 – bakalavr yo'nalishi
III kurs talabalari uchun «O'qituvchi nutq madaniyati»
fanidan soatlar taqsimoti

	Ma'ruza	Amaliy	Jami	Mustaqil ish
1-semestr	14	18	30	27
	14	18	30	73

3. 5141600 - Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi III kurs
talabalari uchun «O'qituvchi nutqi madaniyati»
fanidan reyting ishlanmasi

JN	1- JN	2- JN	40
1 Darsdagi f.	6	6	12
2.nazorat ishi	6	6	12
3. mustaqil ish	8	8	16
ON	1- ON;		30
1Ijodiy ish	18		18
2. Mustaqil ish	12		12
YaB		30(18 + 12)	30
Jami ball	50	50	100

Reyting mezonlari

JN	1-JN	2-JN	J
1 Darsdagi faoliyati (og'so'rov,uy vfzifasi va x.z)	6 x 1=6	6 x 1=6	12
2.nazorat ishi	6 x 1=6	6 x 1=6	12
3. mustaqil ish	8 x 1=8	8 x 1=8	16

ON

1.Ijodiy ish	18 x 1=18	18
2.Mustaqil ish	12 x 1 = 12	12

4. Reyting ballarini mezonlash

	1. Ijodiy fikirlay olish
	2. Mustaqil mushohada qilish
	3. Mohiyatni tushunishi
86-100 %	4. Amalda qo'llay olishi
a'lo	5. Zamonaviy texnologiyani bilishi
	6. Interfaol metodlarni bilishi
	7. Ifodali o'qiy olishi
	1. Mustaqil mushohada qilish
	2. Mohiyatni tushunishi
71-85%	3. Amalda qo'llay olishi
Yaxshi	4. Zamonaviy texnologiyani bilishi
	5. Interfaol metodlarni bilishi
	6. Ifodali o'qiy olishi
55 – 70 %	1. Amalda qo'llay olishi
qoniqarliy	2. Zamonaviy texnologiyani bilishi
	3. Interfaol metodlarni bilishi
	4. Ifodali o'qiy olishi
0 – 54 %	1. Mohiyatni tushunmasligi
qoniqarsiz	2. Interfaol metodlarni bilismasligi
	3. Ifodali o'qiy olmasligi

5. Ma'ruza mashg'ulotlari (jami 14 soat).

№	Mavzular nomi	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Adabiyotlar	Bilimlarni tekshirish shakli	Zam ped tex asosidagi dars
1	O'qituvchi nutqi madaniyati kursining maqsad va vazifalari	2		1,4,7,8	Konspekt	Test
2	Adabiy me'yor va nutq madaniyati	2		3,4,7,8	Savol-javob	Klaster
3	Sharq madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni		2	7,8	Savol-javob	Bumerang
4	Til va nutq. Nutq odobi. Til va madaniyat	2	2	7,8	Konspekt	Venn diagrammasi
5	Nutqning aloqaviy sifatlari	2	2	7,8	Savol-javob	Klaster
6	Nutq madaniyati va uslubshunoslik	2	2	11	Referat	Elpig'ich metodi
7	O'zbek adiblari asarlarida notiqlik, milliy muomala masalalari		2	7,8	Savol-javob	Bahs-munozara
8	Nutq madaniyati va o'qituvchining nutqi. Ta'lim jarayonida nutq madaniyati masalalari.	2	2	7,8	Test	Nima ushun texnologiyasi
9	Nutq madaniyatini egallash yo'llari. Ommaviy axborot vositalarining til xususiyatlari -		2	7,8	Savol-javob	Mahalliy OAV b-n ishlash
10	Nutqiy etiketni o'rganish yuzasidan amaliy mashg'ulot.		2	7,8	Savol-javob	Seminar
11	Yozma nutq madaniyati. O'zbek tilida ish yuritish -	2		7,8	Savol-javob	Ih hujjatlari namunalarini yozish
	5 –semestr	14	16			

6. Ma'ruza mashg'ulotlarining mazmuni

O'qituvchi nutqi madaniyati kursining maqsad va vazifalari-2soat

Nutq madaniyati asoslari fani o'zbek tilshunosligining o'ziga xos amaliy sohasi. U to'g'ri va chiroyli nutq tuzish yo'llarini o'rgatadi.

Nutqi madaniyati - amaliy jihatdan nutqning hilma xil muommolarini tadqiq qiluvchi fan.

Adabiy me'yor va nutq madaniyati -2 soat

Til normasi – nutq madaniyatining markaziy tushunchasidir. Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini, adabiy til normalarining umumiy holatini, ulardagi turg'un va noturg'un hodisalarni tekshirmay nurib adabiy tilning nutqi madaniyati haqida gapirish mumkin emas.

Til va nutq. Nutq odobi. Til va madaniyat- 2 soat

Til va nutq bir- biri bilan bog'liq hodizadir. Ularni bir- biridan ajratib qarash asossizdir.

Til madaniyati til vositalarining boyligi va rand- barangligidan iborat bo'lib, shu tildan foydalanuvchilarning ongida yashaydi. Lekin bu boylukning o'zlashish darajasi jamoa a'zolarining har birida har xil bo'ladi.

Nutqning aloqaviy sifatlari -2 soat

Yaxshi nutq oldiga odatda, ma'lum talablar qo'yiladi. Bular nutqning mantiqiy jihatdan to'g'ri, aniq, toza, ifodali va maqsadga muvofiq bo'lishidir. Bu belgilar nutqning asosiy sifatlari deb yuritiladi.

Nutq madaniyati va uslubshunoslik - 2 soat

Nutq madaniyati asoslari fani - o'zbek tilshunosligining o'ziga xos amaliy sohasi. Uslubshunoslik eza nutq uslublarini o'rganuvchi fan tarmog'i (stilistika) ni anglatadi. Ammo ular biri ikkinchisini to'ldiruvshi ,o'saro aloqador bo'lgan lisoniy hodisalarandir.

Nutq madaniyati va o'qituvchining nutqi.Ta'lim jarayonida nutq madaniyati masalalari. -2 soat

Nutq madaniyati muommolari dars mazmuni va samaradorligi bilan aloqador bo'lgan lisoniy hodisalarandir. O'qituvchi nutqi madaniyatining uzviy bir qismi nutq texnikasidir. O'qituvchining nutqi sof adabiy tilda bo'lishi va ta'lim jarayonida nutq madaniyati masalalariga to'liq rioya etishi zarur.

Yozma nutq madaniyati. O'zbek tilida ish yuritish - 2 soat

Yozma nutq madaniyati birmuncha keyin shakllangan. Yozma nutqda tilning

imlo mezonlarini bilish ustivor ahamiyat kasb etadi.

Ushbu ma'ruzaning maqsadi talabalarga yozma nutq turlariga nimalar kirishi, ular qaday uslubda yozilishini, ish hujjatlaridan bo'lgan ariza, bayonnoma, tarjimai hol, tafsifnoma, dalolatnoma kabilarni to'g'ri, xatosiz yozish qoidalarini o'rgatishdan iborat.

7. Amaliy mashg'ulotlar mazmuni

Sharq madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni.- 2 soat

Ushbu mashg'ulotda Sharq notiqlik san'atiga hissa qo'shgan Kaykovuz, Yu. X. Xojib, Qashqariy, I. Sino, Beruniy, Farobiy, A.Navoiy, voiz Koshifiy, Z.M. Bobur va boshqalarning til, nutq, nutq odobiga oid qarashlariga e'tibor qaratiladi.

Til va nutq. Nutq odobi. Til va madaniyat-2 soat

Til va nutq bir- biri bilan bog'liq hodizalardir. Shy bilan birga ular o'siga xos xususiyatlari bilan bir- biridan farqlanadi. Shunday ekan, til madaniyati va nutq madaniyati ham bir-biridan farqlanadi. Bu farqli xususiatlar, ularning bog'liqli tomonlari "Venna diagrmmasi " asosida talabalarga urgatiladi.

Nutqning aloqaviy sifatleri - 2 soat

Nutqning mantiqiy jihatdan to'g'ri, aniq, toza, ifodali va maqsadga muvofiq bo'lishi kerakligi masalasi amaliy mashqlar, matnlarni tahlil qilish jarayonida talabalarga o'rgatiladi. Badiiy asarlardan olingan parchalar orqali adabiy me'yordan chekingan holatlar aniqlanadi.

Nutq madaniyati va uslubshunoslik - 2 soat

Badiiy asarlardan, gazeta va jurnallardan olingan parchalar orqali matnning uslubi aniqlanadi. Uning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Talabalarni variantlarga bo'lib, har bir uslub bo'yicha matnlar tuzish topshiriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining nutqiga qo'yilgan talablar, uning dars jarayonida qanday uslublardqan foydalanishi kerakligi muhokama qilinadi.

O'zbek adiblari asarlarida notiqlik, milliy muomala masalalari -2 soat

Ushbu darsda A. Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, A. Qahhorlarning badiiy asarlari misolida so'z ishlatish bobidagi mahorati, notiqlik, milliy muomala masalalari, badiiy tildagi o'ziga xosliklar tahlil qilinadi. A. Qahhorning "Nutq", "San'atkor", "O'g'ri", "Anor", "Bemor" kabi asarlarining tili, so'z ishlatishdagi aniqlik, bir so'z bilan bir necha ma'noni ifodalash kabilari ta'kidlanadi.

Nutq madaniyati va o'qituvchining nutqi. Ta'lim jarayonida nutq madaniyati

masalalari. -2 soat

Ta'lim jarayonida o'qituvchining nutqi qanday talablarga javob berishi masalalari, u o'z faoliyatida qanday yozma nutq turlaridan foydalanishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari o'rganish ushbu darsning mazmunini tashkil etadi. Ushbu tushunchalar talabalarga "Klaster" metodidan foydalangan holda o'rgatiladi.

Nutq madaniyatini egallash yo'llari. Ommaviy axborot vositalarining til xususiyatlari -2 soat

Darsda nutq madaniyatini egallashning 2 yo'li, OAV lari tilining namunali til ekanligi, ularining til xususiyatlari talabalardan so'ralib, OAV tilidagi adabiy me'yordan chekingan holatlar, g'alizliklar mahalliy gazetalarda bosilgan matnlar orqali aniqlanadi.

Nutqiy etiketni o'rganish yuzasidan amaliy mashg'ulot. -2 soat

Etiket yaxshi xulq, jamoatchilik joylarida o'zini tuta olish, tashqi qiyofa, muomala madaniyatidir. Uchrashganda nazokat bilan so'rashish, xayrlashish, jamoat joylarida o'zini tutish, xushmuomalalik xususiyatlarini o'rgatish ushbu mashg'ulotning asosiy vazifasi hisoblanadi.

8. Mustaqil ta'lim (jami 27 soat).

No	Mavzular nomi	Soati	Adab-r
1	Alisher Navoiy nutq odobi haqida	2	7,8
2	V. Koshifiyning nutq madaniyatiga oid fikrlari	2	
3	Z. M. Bobur asarlarida maqsadga muvofiqlik	2	
4	Abdulla Avloniy «Turkiy guliston» asarida nutq aniqligi haqida	2	7,8
3	Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» asarida milliy nutq, muomala.	2	7,8
6	G' Gulom asarlarida nutq boyligi masalasi	2	
7	Abdulla Qahhor asarlarida nutq to'g'riligi	2	7,8
8	Said Ahmad asarlarida nutqning sofliigi masalasi	2	7,8
9	Mirtemir she'riyatida shevaga oid so'zlar	2	7,8
10	Tarixiy asarlarda eskirgan so'zlarning ishlatilishi	2	7,8
11	H. Hudoyberdieva asarlarida eskirgan so'zlarning ishlatilishi	2	7,8
12	A . Oripov she'rlarida sinonimlar.	2	9
13	E. Vohidov she'rlarida ko'p ma'noli so'zlar	2	7,8,9

14	O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» asari tilining mantiqiyligi maqsadga muvofiqligi	1	
	5 –semestr	27	

4. Nazorat savollari:

1. Nutq madaniyati kursini o'qitishdan maqsad nima?
 2. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
 3. Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimda qaerda shakllangan?
 4. Nutqning asosiy xususiyatlarini sanang.
 5. Nutqning to'g'riligi deganda nimani tushunasiz?
 6. Sharqda nutq madaniyati bilan shugullangan mutaffakirlardan kimlarni bilasiz?
 7. Notiqlik san'ati nima?
 8. Nutq tushunchasini ifodalang.
 9. Nutqning aniqligi deganda nimani tushunasiz?
 10. Adabiy me'yor nima?
 11. Nutq odobi nima?
 12. Nutqning mantiqiyligini tushuntiring.
 13. Til madaniyati bilan nutq madaniyati qaysi jihatlariga ko'ra farq qiladi?
 14. Notiqlar kimlar?
 15. Nutq madaniyatiga doir qanday asarlarini bilasiz?
 16. Nutqiy malakaga qanday erishish mumkin?
 17. Voizlar deb kimlarga aytiladi?
 18. Nutq madaniyatining shakllanishida maqollarning o'rni qanday?
 19. Nutqning tozaligi.
 20. Nutqning ta'sirchanligi.
 21. Nutqning boyligi.
 22. Ariza qanday yoziladi?
 23. Bayonnoma qanday yoziladi?
 24. Tavsifnoma yozish tartibini tushuntiring.
 25. Ma'lumotnoma qanday yoziladi?
 26. Tarjimai hol qanday yoziladi?
 27. Til qanday hodisa? Nutqiy etiket deganda nimani tushunasiz?
- Nutqda “-mi” inkor yuklamasining qo'llanish stilistikasi haqida atroflicha bayon eting.
28. Nutqning maqsadga muvofiq bo'lishi uchun nimalarga e'tibor berish lozim?
 29. Nutq odobi haqida ma'lumot bering.
 30. Nutqning to'g'riligi deganda nimani tushunasiz?
 31. Nutqning ekspressivligini oshirish uchun nimalarga e'tibor qilish kerak?
 32. Nutqda ko'plik qo'shimchasining qo'llanish uslubi haqida gapiring?
 33. Nutqning tozaligida nimalarga rioya qilish lozim?

34. Nutqda sintaktik shakl ishtirok etgan holatlar qaysi uslubga xos?
35. Hujjat turlari va uslublari.
36. Aniq nutq yaratish so'zlovchidan nimani talab qiladi?
37. Nutqda inkor forma va inkor yuklamasining grammatik stilistika sifatlari haqida?
38. Uslubiyatning turlari?
39. Nutqda takrorni qo'llash qanday natija beradi?
40. Nutq odobi nima?
41. Nutqning tozaligi haqida?
42. Nutqda analitik shakllar ishtirok etgan holatlar qaysi uslubga kiradi?
43. Hujjatlarda gapning qurilishi?
44. Nutq madaniyatida terminologiyaning qo'llanishi.
45. Grammatik stilistikada shakllarning o'rni almashtirib qo'llanish uslubi.
46. Hujjatlar matnida morfologik va sintaktik xususiyatlarning ta'minlanishi?
47. Yunonistonda notiqlik san'atining rivojlanishida aristokratiya va demokratiya tuzumi o'rnatilishining roli haqida.
48. Diniy notiqlik ko'rinishidagi nutqlar va shu yo'nalishdagi namoyondalar haqida.

Darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T., Sharq, 1998.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. -T., O'zbekiston, 1999.
3. R.Qo'ng'urov. E. Begmatov. YO. Tojiev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -T., O'qituvchi, 1992.
4. T. Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. -T., O'qituvchi, 1993.
5. Siddiq Mo'min. So'zlashish san'ati. – Fargona, 1997.
6. N.Mahmudov. Ma'rifat manzillari.
7. R.Rasulov, Q.Mo'yidinov. Nutq madaniyati. -T., 2004
8. R.Rasulov, N.Husanov, Q.Mo'yidinov. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. -T., 2006.
9. N.Mahmudov, A.Rafiev, I.Yuldashev. Davlat tilida ish yuritish. -T., 2004

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Begmatov E, Boboeva A, Assomidinova M, Umurqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. -T.: Fan, 1983
2. Begmatov E, Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1,2, 3 qismlar. - T., 1997, 1998, 2000
3. Begmatov E, Jiyanova N. O'qituvchi nutqi madaniyati asoslari. (ma'ruzalar matni. -T., 2006

4. Tojiev Yo, Hasanova H, Tojimatov, Yo'ldasheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. (ommabop qo'llanma. -T., 1994
5. Ne'matov H, Bozorov O. Til va nutq. –T, 1993
6. “Yosh kuch ” sovg'asi. Etiket. –T.: Yangi asr avlodi, 2004

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi
Muqimiy nomidagi Qoqon Davlat Pedagogika Instituti

O`QITUVCHI NUTQI MADANIYATI

fanidan ma`ruzalar matni

Bilim sohasi:	100000 - Ta`lim
Ta`lim sohasi:	140000 - O`qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani
Bakalavriat yunalishi:	5141600 – boshlangich ta`lim va sport tarbiyaviy ish.

Qo`qon -2011

Ushbu ma'ruza matni O'zROO'MTVning 2002-yil 10- avgust duyruqi bilan tasdiqlangan DTS asosida va tayanch oliy uquv yurtiu ToshDPU tomonidan tavsiya qilingan 2006 yildagi namunaviy dastur asosida tuzilgan.

Dastur Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashining 2011 yil 29-avgustdagi 1 – yig'ilishida ko'rib chiqilgan.

Ushbu ma'ruza matni kafedraning 2010 yil 30-avgustdagi 1- majlisida muhokama etilgan.

O'quv bo'limi boshlig'i: _____ A. Turg'unov
Fakultet dekani : N. Erkaboeva

Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrasi mudiri:

Isaqov Z.

Tuzuvchi:

Husainova F.

1 - mavzu: O'qituvchi nutqi madaniyati kursining maqsad va vazifalari.

Reja :

1. Nutq madaniyati fanining maqsad va vazifalari
2. Nutq madaniyati umuminsoniyat madaniyatining tarkibiy qismi.
3. Nutq madaniyati tarixidan
4. Nutq madaniyati fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Tayanch tushunchalar:

Notiqlik san'ati, ritorika, nutq odobi, voiz, voizlik, leksikologiya va semasiologiya, logika, estetika, adabiyot nazariyasi.

Nutq madaniyati umuminsoniyat madaniyatining bir qismi bo'lib hisoblanadi. Tor ma'noda nutq madaniyati - til me'yorlarini egallamoq, ya'ni talaffuz, urg'u, so'z ishlatish, gap tuzish qonunlarini yaxshi bilmoq, shuningdek, tilning tasviriy vositalaridan har xil sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq holda foydalana olish va ifodali o'qish madaniyatini egallash demakdir.

Nutq madaniyati atamasi rus tilida yozilgan adabiyotlarda asosan 2 xil:

1. Nutq fazilatlari yig'indisi.
2. Namunaviy nutq sirlarini egallash haqidagi ta'limot ma'nolarida ishlatiladi.

Madaniy nutqning fazilatlari deganda, uning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyligi, ifodaviyligi, boyligi, sofligi kabilar tushuniladi.

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot o'zining uzoq o'tmishiga ega. U ta'limot sifatida Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misrda, Assuryada, Vavilon va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tarixidan ma'lum. U paytlarda har bir davlat arbobining notiq bo'lishi shart bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan baravar darajada ulug'langan. Ana shu ehtiyoj tufayli notiqlik nazariyasi yaratiladi.

Nutq madaniyati fanining maqsad va vazifalari.

Nutq madaniyati asoslari fani o'zbek tilshunosligining o'ziga xos amaliy

sohasidir. U tilshunoslikning nazariy kurslaridan olingan bilimlarga suyanan holda to'g'ri va chiroyli nutq tuzish yo'llarini o'rgatadi.

Nutq madaniyati - amaliy jihatdan nutqning xilma - xil muommolarini tadqiq qiluvchi fan. Pedagogika institutlarida chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til, til me'yorlari, nutq, nutqning talaffuziga doir muammolari yuzasidan bahs yuritadi.

Nutq madaniyatining tekshirish predmeti nutqning til qurilishi, adabiy til me'yorlari va nutqning kommunikativ (aloqa uchun kerakli fazilatlaridir)

Nutq madaniyati fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Har bir nutqda tilning hamma qismlari ozmi-ko'pmi o'z ifodasini topadi. Tilning biror sohasi qatnashmay qolgan nutqning bo'lishi mumkin emas. Demak, har qanday nutqda tilning fonetikasi ham, leksikasi ham, so'z yasalishi, morfologiyasi ham, sintaksisi, stilistikasi ham ishtirok etgan bo'ladi. Shunday ekan, nutq madaniyati fani ham tilshunoslikning hamma tarmoq fanlari bilan bog'langandir.

Nutq madaniyati fani uslubshunoslik (stilistika)ga ham yaqindir. Uslubshunoslik til uslublarini o'rganadi. Nutq madaniyati asoslari fani bo'lsa tilshunoslikning til me'yorlariga aloqador hamma sohalari bilan bog'langandir.

Nutq madaniyati asoslari fanining asosiy tayanchi hozirgi o'zbek adabiy tilining grammatikasidir, chunki nutqning to'g'riliigi uning asosiy fazilati bo'lib, u grammatik me'yorlar tizimini, bu tizimni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi shart-sharoitlarni o'rganadi. Ammo u me'yorga bo'ysunuvchi grammatik kategoriyalar, shakllar, ma'nolarni o'rganmaydi.

Nutq madaniyati asoslari fani leksikologiya va semosiologiyaga qattiq bog'langandir, chunki nutqning aloqaviy sifati hisoblangan aniqlik, to'g'rilikni so'zning lug'aviy ma'nolarining aniq tavsifisiz tushunib bo'lmaydi. Nutqning mantiqiyligi so'z ma'nolarining ma'no va mazmuniy bog'lanishlariga asoslanadi. Nutqning soflik, ifodaviylik, o'rinnilik kabi aloqaviy fazilatlar ham nutq

madaniyati fanini leksikologiya va semasiologiya bilan bog'laydi.

Nutq madaniyati fani hamma vaqt mantiq va ruhshunoslikka suyanadi. Mantiqning so'zlar va butun bir gapdan chiqadigan ifodalanayotgan tushuncha o'rtasidagi munosabatini mantiq tekshiradi. Sintaktik tuzilmalar orasidagi mazmuniy aloqalarning jiddiyligiga shubha paydo bo'lganda mantiqqa murojaat qilish zarurati tug'iladi.

Bunday paytlarda asosiy tushunchalarni ham, mantiqiy kategoriyalarini ham taqqoslash, farazlar va teoremlarni ham ishga solishga to'g'ri keladi. Mantiqiylikka murojaat qilish, xususan, gapni tavsiflash, uning mantiqan manfiy va musbat tomonlarini aniq belgilash paytida yanada zarur bo'ladi.

Nutq qurilishi o'rinli va o'rinsiz bo'lib ko'ringan holatlarda ruhshunoslikka murojaat qilishga to'g'ri keladi. Tilning o'rinsiz qo'llangan u yoki bu vositasi kishilar ruhiy holatini qay darajada vayron etishini ruhshunos aytib bera oladi. Ruhshunos kishi nutqiy malakalarini kengaytirish va mustahkamlash sharoitlarini hamda vositalarini, hamda ularning mukammallashuvini o'rganish orqali nutq madaniyati asoslari faniga yordam berishi mumkin.

Bundan tashqari, nutq madaniyati nafosat haqidagi fan estetika bilan, badiiy adabiyot nazariyasi, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid bilan aloqadordir.

2- mavzu: Adabiy me'yor va nutq madaniyati

Reja

1. Til me'yori- markaziy tushuncha.
2. Til me'yori –davtiy hodisa.
3. Til me'yorining yangilanib borishi
4. Bizning davrimizda til me'yori

Tayanch tushunchalar:

Nutq madaniyati nazariyasida til me'yori markaziy tushunchadir. "Til madaniyatining asosiy tekshirish ob'ekti adabiy til me'yorlari, asosiy vazifasi esa

ushbu me'yordagi ikkilanishlarni bartaraf etish bo'lmog'i kerak. Til me'yorlarining muhimligi haqida rus tilshunosi L.I. Skvortsov obrazli qilib shunday degan edi: "Ijtimoiy madaniy hayotda til me'yorlari bir mashaldirki, nutq faoliyatining qirg'oqsiz okeanida til jamoasi unga qarab intiladi, tayanadi"

Shunday qilib, nutq madaniyati asoslari fani adabiy til me'yorlarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishi, undagi ba'zi unsurlarning eskirishi, ular o'rnida jamiyatning yangicha talablariga javob beradigan yangi me'yoriy unsurlarning paydo bo'lishini kuzatib, qayd etib boradi.

Har bir davr adabiy tilining o'z me'yorlari bo'ladi. Ba'zi bir hodisalar uzoq davrlar me'yor sifatida qo'llanilib kelishi mumkin. A. Navoiy ijod etgan XV asr o'zbek adabiy tilining o'z me'yorlari mavjud edi, ularga ko'ra tilning fonetikasi, grammatikasi va stilistikasidan foydalanishning o'z me'yori bor edi. U davr adabiy tilining o'z talaffuz me'yorlari ham bo'lgan. Bu adabiy me'yorlar jiddiy o'zgarishlarga uchramasdan badiiy adabiyot tilida XIX asr oxirlarigacha amal qilib keldi.

O'zbek demokratik adabiyoti vakillari, ilg'or yozuvchilar xalq hayotini, tasvirlash jarayonida o'z asarlarining tilini halq tiliga yaqinlashtirishga harakat qildilar. Bu adabiy tilga yangi me'yoriy hodisalarning kirib kelishiga olib keldi. Bu borada, ayniqsa, Muqimiy, Furqat, keyinroq Hamza, A. Qodiriy, A. Avloniy, M. Mirmuhammedov, Fitrat, Cho'lpon, So'fizoda kabilarning xizmatlari kattadir.

Bizning davrimizda o'zbek adabiy tili me'yorlari jiddiy yangilandi: so'z qo'llash, grammatika, talaffuz me'yorlari xalq jonli tili xususiyatlari asosida o'zgardi. Nutq madaniyati fani tilning hamma sohalari bo'yicha adabiy til me'yorlarini tadqiq qilib boradi. Eng maqbul hodisalarning adabiy me'yor sifatida mustahkamlanishi uchun tavsiyalar beradi. Biroq bu fan adabiy me'yorlar yaratmaydi, bahzi bir hodisalarni majburan me'yorga kiritmaydi. Balki o'zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini kuzatib boradi, ob'ektiv qonunlarni kashf etadi, yangi tavsiyalar beradi, xolos.

3- mavzu: Til va nutq. Til madaniyati va nutq madaniyati. Nutq odobi.

Reja:


1. Til va nutqning bir- biridan farqi
2. Til madaniyati va nutq madaniyati
3. Tilning lisoniy imkoniyatlarini egallash bosqichlari
4. Insonning nutqiy faoliyati

Tayanch tushunchalar:

Til, nutq, til madaniyati, nutq madaniyati, tilning lisoniy imkoniyatlarini egallash, so'zlash, eshitish, mutolaa, monologik nutq, diologik nutq.

Til – ma'lum kishilar jamoasi a'zolarining muloqoti uchun muhim va asosiy vosita hisoblangan o'ziga xos belgilar tizimlaridan biri bo'lib, jamiyatda tafakkurning rivojlanishi uchun, madaniy tarixiy an'analarni avloddan-avlodga etkazish uchun xizmat qiladi.

Nutq- ifodalangan ma'lumot talabiga mos holda til qoidalari asosida tuzilgan til belgilarining tartibidir. Til nutqqa aylangach, moddiy ahamiyat kasb etadi. Nutq - nutq (a'zolari) organlari harakatining natijasi sifatida paydo bo'ladi. Nutq a'zolarining harakati nutq faoliyati hisoblanadi. Nutq faoliyati deganda inson organizmining nutq tuzish uchun zarur hisoblangan ruhiy-fiziologik ishining yig'indisi tushuniladi.



Til madaniyati deyilganda, ana shu tildagi ifoda vositalarining ongli aralashish natijasida hamma tushunadigan va qo'llay oladigan darajaga keltirilganligi, ma'lum davr uchun mosligi, ishlatilish qonun va qoidalari, me'yorlarining qay darajada aniq va mukammal ishlanganligi, sayqal topganligi tushuniladi. Boshqacha aytganda, til madaniyati deganda, til birliklari va ular imkoniyatlari taraqqiyotining, ular o'rtasidagi munosabatlar hamda shu munosabatlarni ta'minlovchi qonun-qoidalarining ishlanish darajasi tushuniladi.

T. Qudratov bu haqda shunday deydi: "Tilning madaniyati deyilganda, uning so'z boyligi, sintaksisining taraqqiyoti va boyish darajasi, so'z ma'nolarining o'tkirligi, nutqiy ohangning rang-barangligi tushuniladi. Nutqning madaniyati, uning aloqaviy fazilatlar yig'indisi va tizimi bo'lib, ular til madaniyati, til faoliyatida qiynalmaslik, matnning mazmuniy vazifasi va imkoniyati kabi har xil sharoitlarga bog'liq".

Til madaniyati til vositalarining boyligi va rang-barangligidan iborat bo'lib, shu tildan foydalanuvchilarning ongida yashaydi. Lekin bu boylikning o'zlashish

darajasi jamoa aHzolarining har birida har xil bo'ladi. Qaysi shaxs til madaniyatiga tegishli vositalarni o'zlashtirgan va ularni o'z nutqi jarayoniga aylantirgan bo'lsa, o'sha shaxsning nutqi shu darajada madaniyatli bo'ladi.

Nutq yakka shaxs ijodi ekan, **nutq madaniyati** har shaxsning til imkoniyatlarini qanchalik o'zlashtirganligiga va ulardan nutq sharoitiga mos mohirona foydalana olishiga bog'liqdir. Tilning lisoniy imkoniyatlarini egallash ikki bosqichdan: bilish va bu imkoniyatlarni chuqur o'zlashtirishdan iborat. Til vositalarini bilish nutqni tinglaganda, ularning ma'nosi va vazifasini anglashda ko'rinadi, ya'ni tinglovchi tinglagan va o'qigan narsalarini tushunadi. Bunday shaxs o'zgarar nutqini yaxshi tushunadi. Ammo o'zining nutqi tilning rang-barang imkoniyatlaridan ma'rum va qashshoq bo'ladi.

Ikkinchi bosqich til tizimi taqdim etgan imkoniyatlarning katta qismini chuqur o'zlashtirishdan, ularni nutq tezkorligiga aylantirib olishidan iboratdir. Bunga erishgan shaxsning nutq ravon, boy, obrazli, o'rinli bo'ladi. Birinchi bosqichda anglab olingan nutq vositalari ustida doimiy mashq qilish, ularni xotirada saqlashga doimo e'tibor berish, bu imkoniyatlarni nutqiy tezkorlikka aylantiradi.

Nutq faoliyati.

Insonning nutqiy faoliyati 3 ko'rinishda amal qiladi. Bular so'zlash, mutolaa va eshitish. **So'zlash** deyilganda so'zlovchining ma'lumot, maslahat berishi, buyurishi, o'ziga noma'lum narsalar haqida so'rashi anglashiladi. So'zlaganda so'zlovchining bilimi, madaniyati, axloqi, odobi yuzaga chiqadi.

So'zlash monologik va dialogik ko'rinishda bo'lishi mumkin. Monologik nutqda bir kishining mulohazalari qarshi savollarsiz va javoblarsiz yuzaga chiqadi, suhbatdoshi tomonidan bo'linmaydi. Dialogik nutqda muloqot qiluvchi shaxslar navbat bilan goh tinglovchi, goh so'zlovchi bo'lib turadi.

Mutolaa o'quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqotidir. Mutolaa tufayli o'quvchi yozma nutqda aks etgan voqea -

hodisalardan xabardor bo'ladi, ular ta'sirida xulqida qandaydir o'zgarish paydo bo'ladi. Mutola ma'lumot olishning eng muhim yo'lidir. Kitob o'qish orqali kishi ma'naviy etuklikka erisha boradi.

Mutolaa oddiy o'qish, ilmiy o'qishdan iborat. Oddiy o'qiganda o'quvchi uchun yozma nutq mazmuni bilan tanishuvning o'zi maqsad qilib qo'yiladi.

Ilmiy o'qishda o'quvchi asarni tahlil qilishni, undan boshqa maqsad uchun foydalanishni, uning mazmunini qayta bayon qilish kabilarni maqsad qilib qo'yadi.

4- mavzu: Nutqning aloqaviy sifatlari

Reja:

1. Madaniy nutqning xususiyatlari
2. O'qituvchi nutqning to'g'riligi
3. O'qituvchi nutqining aniqligi
4. O'qituvchi nutqining sofligi
5. O'qituvchi nutqining ifodaliligi
6. O'qituvchi nutqining boyligi
7. O'qituvchi nutqining o'rirliligi

Tayanch tushunchalar:


Madaniy nutq, aniqlik, to'g'rilik, , nutq sofligi, mantiqiylik, ifodaviylik, nutq boyligi

Nutq - so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda aytilmoqchi bo'lgan maqsadning tinglovchi va kitobxonga to'liq borib etishi, ularga ma'lum tahsir o'tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra nutq oldiga ma'lum talablar qo'yiladi. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to'g'ri, aniq, chiroyli, yorqin, maqsadga muvofiq bo'lishidir. Bu belgilar **nutqning asosiy sifatlari, xususiyatlari** deb qaraladi.

Rimliklar qadimgi davrlardayok yaxshi namunaviy nutqning qoidalarini ishlab chiqqanlar. Masalan, Tsitseronning fikricha, aniqlik va tozalik nutq uchun shunchalik zarurki, ularni asoslab o'tirishning ham zaruriyati yo'q. Ammo notiq tinglovchilarni o'ziga jalb qilishi uchun nutq jozibador bo'lishi ham kerak. Notiq Dionis Galikarnas esa nutqda maqsadga muvofiqlikni muhim deb hisoblagan.

Xullas, qadimgi rim notqlik san'ati nazariyotchilari asosiy e'tiborni nutqning har tomonlama yaxshi bo'lishiga qaratganlar.

Ta'kidlash kerakki, nutq ma'lum shart-sharoitlarda amalga oshiriladi. Bunda joy, vaqt, mavzu va aloqa jarayonining maqsadi kabi omillar ham ahamiyatlidir. Shunday qilib, nutqning aloqaviy (kommunikativ) sifati deganda quyidagi holatlarni nazarda tutish lozim bo'ladi: nutqning to'g'riligi, tozaligi, aniqligi, mantiqiyliigi, ta'sirchanligi, obrazlilik, tushunarligi va maqsadga muvofiqligi tushuniladi. Quyida nutqning ana shu sifatlariga alohida-alohida to'xtalamiz.



Nutqning to'g'riligi Nutqning to'g'ri bo'lishi - bu uning bosh aloqaviy sifati sanaladi. Nutqning to'g'ri tuzilgan bo'lishi tomonlarning - so'zlovchi va tinglovchining, yozuvchi va o'quvchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini ta'minlaydi. Agar nutq to'g'ri bo'lmasa, u aniq ham, maqsadga muvofiq ham, mantiqiy ham bo'lmaydi. "To'g'rilik deganda, - deb yozadi V.G.Kostomarov, - nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda

qabul qilingan me'yoriga qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy, lug'at va grammatik me'yorlarini egallashni tushunish lozim bo'ladi".

Demak, nutqning to'g'ri bo'lishi, eng avvalo, uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishidir. Nutqning to'g'ri bo'lishi asosan ikki me'yorga - urg'u va grammatik me'yorga qattiq amal qilishni taqozo qiladi.

So'zlardagi ayrim bo'g'inlarining zarb bilan aytilishi, talaffuz qilinishi, ya'ni urg'u hamda tillarda ham bir xil xususiyatga ega emas. Masalan, rus tilida urg'u so'zlardagi ham xil bo'g'inlarga tushishi, erkin bo'lishi mumkin bo'lgani holda, o'zbek tilida u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. So'zlarga qo'shimchalar qo'shila borishi bilan urg'uning o'rni ham o'zgarib boraveradi.

Masalan: *maktab – maktabi – maktabimiz – maktabimizda – maktabimizdagi – maktabimizdagilardan* kabi. Demak, talaffuzda ana shu me'yorni saqlash lozim bo'ladi. Bu masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchida so'zlardagi urg'uning ko'chishi bilan ma'noning ham ba'zan o'zgarib ketishi mumkinligini unutmaslik kerak.

O'zbek tilida shunday hodisani kuzatish mumkin. Masalan: olma so'zini olaylik. Bu so'zni alohida urg'usiz olib qaraganda, uning qanday ma'noda qo'llanayotganini aniqlash qiyin. Faqat urg'u undagi ma'noning aniqlashga ko'maklashadi, ya'ni olma tarzida urg'u birinchi bo'g'inga tushganda harakat, olma kabi oxirgi bo'g'inga tushganda esa mevaning bir turi ma'nosi anglashiladi.

Tilimizda bunday so'zlar anchagina. *Qatlama-qatlama, hozir - hozir, yigitcha - yigitcha, o'quvchimiz - o'quvchimiz, yangi-yangi* so'zlarining ma'nosi ham faqatgina urg'u yordamida oydinlashadi. Ularni, ya'ni urg'uni qaerga quyishni farqlamaslik so'z ma'nolarining buzilishiga binobarin, so'zlashuv nutqida adabiy-me'yorning buzilishiga olib keladi. So'zlar talaffuzidagi bunday nome'yoriy holatlarga, ayniqsa, madaniyat va maorif xodimlarining yo'l qo'yishlarini aslo kechirib bo'lmaydi.

Gapdagi ayrim olingan so'zga tushadigan urg'u, yahni mantiqiy (logik)

urg'uning har ma'noni farqlashda xizmati katta.

Hamma tillarda ham qaysi ma'no alohida nazarda tutilayotgan bo'lsa, shu ma'noni ifoda etayotgan so'z alohida urg'u bilan talaffuz qilinadi. Masalan, men kitob o'qidim gapida kim, nima o'qiganligi yoki nima ish qilinganligini nazarga olinib, bu gapdagi so'zlarning har uchalaridan biriga urg'u tusha oladi.

Men kitob o'qidim. (Men o'qidim, boshqa emas)

Men **kitob** o'qidim. (Aynan kitob o'qidim, jurnal emas)

Men kitob **o'qidim**. (Tomosha qilganim yo'q ma'nosida) Bunday o'rinlarda mantiqiy urg'u ma'noni ta'kidlash uchun kerak.

Grammatika deganda, eng avvalo, nutq qurilishining grammatik shakllarini, tartibni, to'g'ri tuzish va ularning nutqda ishlatilishini o'z ichiga oluvchi, qat'iy qaror topgan tizimi tushuniladi. Bu tizimga adabiy tilda gapiruvchilar, ayniqsa, yozma nutq va matbuot uchun majburiy sanalgan grammatik me'yorlar kiradi. "Grammatika nutq oqimidagi so'zlarning o'zgarishi va ulardagi birikuvining xilma-xil qoidalari yig'indisidir".

Faqat grammatik qoidalarga rioya qilishgina nutqqa qat'iy ma'noli va mantiqiy izchil xarakter berish imkonini yaratadi. Chunki so'z o'z - o'zicha hamma imkoniyatlarini ocha olmaydi. U faqat boshqa so'zlar bilan birikkandagina, har safar (ko'rganimizdek) yangi ma'no kasb etib, fikr va hissiyotlarning nozik qirralarini ifodalab, to'liq va har taraflama yashaydi.

Xullas, grammatik me'yorlarga rioya qilish deganda, gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish o'zak va qo'shimchalar o'rtasidagi bog'lanishning tabiiyligi, ega - kesim mosligi, ikkinchi darajali bo'laklarining ularga bog'lanish qonuniyatlari kabilarini e'tiborga olish lozim bo'ladi.

Tilimizda morfologik, sintaktik chalkashliklar tez-tez uchrab turadi. Ko'pchilik holatlarda kelishik qo'shimchalari farqlamasdan ishlatiladi. Bu esa ba'zan mazmunda xatolikka olib borishi mumkin. *Umrini tog'larda o'tkazgan odamning tabiat tilini bilmaydi, deyish qiyin.* ("Qishlok haqiqati") *Uning xayolini*

yana direktorning xotini bo'ldi. (Shuhrat).

O'zbek tili boyliklarining mohir bilimdoni A. Qahhor ham qaratqich va tushum kelishigining ba'zan farqlamay ishlatish holatidan o'zining "San'atkor" hikoyasida asar qahramonining savodsizligini fosh etishda ustalik bilan foydalanadi: *Pojarniy "Gugurtni erga tashlamang" dedi, rejissyorimiz esa "gugurtning erga tashlamang" dedi. Qanday chiroyli!* (A,Q)

Ko'plik tushunchasi - larni qo'llashda ham chalkashliklar seziladi. Masalan: *Veteran o'qituvchining yuzlab shogirdi hozirgi kunda turli sohalarda samarali mehnat qilib, murabbiyga obro'-ehtibor keltirmoqdalar* ("Sharq tongi"). Qiyos: *Shogirdi ... obro'-ehtibor keltirmoqdalar* (? !); *A. Qahhor yozish u yoqda tursin, bunday holda hatto birovga dastxat ham bermas edilar. Umuman, yozuvchilik ular uchun nihoyatda muqaddas ish edi.* (O'zbekiston adabiyoti va san'ati) sinonimik holatda bo'lgan affikslarning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash ham hamma vaqt muvaffaqiyatli chiqavermaydi. Masalan, - dan o'rnida - likni qo'llash.

Aniqlik har nutqning asosiy aloqaviy sifatlaridan bo'lib, yaxshi nutqning shakllanish shartlaridan biridir. Agar to'g'ri nutqning yuzaga kelishida faqat lisoniy faktor zaruriy belgi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda, uning shakllanishiga xizmat qiluvchi, tildan tashkarida bo'lgan holatlarni ham nazarda tutish lozim bo'ladi. Bu eng avvalo, til va tafakkur dialektikasidir. Chunki, aniqlik deyilganda, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo'lgan material o'rtasidagi mutanosiblik tushuniladi. Shundan kelib chiqib B.N.Golovin yozadi: "Aniqlikni nutq - voqelik" va "nutq - tafakkur" munosabati asosida belgilash mumkin.

Tabiat va jamiyatdagi turli voqea-hodisalar, narsalar, olamning jug'rofiy tuzilishi kishilarning his-tuygulari, harakat va holatlari har bir tilda o'zining lisoniy ifodasiga ega. Ana shu lisoniy ifoda yordamida bu hodisalar inson tomonidan anglanadi, tushuniladi, idrok qilinadi va fikr almashinadi. Shuning uchun ham nutq oldida u aniq bo'lishi kerak deb talab qo'yilganida lisoniy birlik hamda u

ifodalayotgan tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi aniq muvofiqlik tushuniladi: "... Agar inson tafakkurini eng yuksak yutuqlari, eng chuqur bilimlari so'zda aniq va ochiq-oydin ifodalanmagan bo'lsa, ular baribir odamlarga noma'lum bo'lib qolaveradi. Bizning vazifamiz aytadigan fikrimizning boshqalar tomonidan qabul qilinishiga erishishdan iboratdir. Qabul qilish esa ko'p jihatdan bizning o'z nutqimizni qanday ifoda qilishimizga bog'liqdir".

Demak, aniqlik - bu so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. "Aniqlikni boshqacha tushunish ham mumkin, - deydi B.N.Golovin, bu so'z va uning ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ma'nosi hamda uning nutqdagi qo'llanishi bilan muvofiq kelishidir".

Ko'rinadiki, aniqlik nutqning xususiyati sifatida eng avvalo, til tizimidagi lug'aviy daraja bilan bog'lanadi. Boshqacha qilib aytganda, nutq aniqligi termini ostida voqelik va uning tildagi ifodasi bo'lgan lug'aviy birlik - so'z o'rtasidagi o'zaro moslik anglashiladi.

Eng avvalo, nutqda sinonimlarga munosabat masalasini olaylik. Har bir tilning, jumladan, o'zbek tilining sinonimik imkoniyatlari juda keng. Gap faqat uning ma'noni ifoda etish nuqtai nazaridan eng maqsadga muvofiq'ini topib ishlatishda.

Sinonimik qatordagi so'zlarni farqlamasdan ishlatish kabi holatga ayrim misollar keltiramiz: salqin va sovuq so'zlari farqlanmaydi: *Oshxona va konditer mahsulotlari, yarim fabrikatlar, sharbat va turli xil salqin ichimliklar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish choralari ko'rildi*. ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati"); keyingi, oxirgi, so'nggi so'zlarni farqlamaslik: *Oxirgi yillarda bu masalaga yanada jiddiyoq e'tibor bermoqdamiz (radiodan)* va hokazo.

Oxirgi, so'nggi leksikalari, oxirgi so'z, so'nggi so'z birikmalarida birlarida sinonim bo'lsa ham oxirgi yillarda birikmasida u so'nggi so'ziga sinonim bo'la olmaydi.

E'tiboringizni qaratishimiz lozim bo'lgan ikkinchi masala, bir qaraganda

go'yo bir-biriga yaqinday ko'ringan, ammo ma'noda farqlanadigan so'z va birikmalarni noto'g'ri qo'llashdir. Masalan, katta va uzun, qadam qo'ymoq va qadam tashlamoq juftlarini olaylik: *Bo'yi mendan kattaroq; o'zi sap-sariq* (U.Hoshimov). Uzun-qisqalik va katta-kichiklik ikki xil o'lchovdir. Birida ikki nuqta orasidagi masofa; ikkinchisida hajm o'lchanadi. Shuning uchun bo'yni katta deb bo'lmaydi. Balki baland yoki past deyish mumkin. Yana: *Mustaqil hayotga qadam tashlayotgan yoshlarimiz ZAGSdan o'tgandan keyin urush qahramonlarining xotirasi abadiylashgan yodgorlik poyiga hurmat-ehtirom bilan gulchambarlar qo'yadilar* ("Sharq tongi"). O'qiganda ma'nodagi noziklik go'yo sezilmayotgandek tuyulsa ham, bu o'rinda qadam qo'ymoq iborasini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Chunki qadam qo'ymoqda harakatni endi boshlash ma'nosi mavjud, qadam tashlamoq esa harakatdagi bu chegarani ko'rsata olmaydi. Mana bu: *Meni yangi ishga yo'rgaklagan hamqishloqlarim, shuningdek, ustoz Ma'rifat Rafievalar foydali maslahat va amaliy yordamlarini mendan ayamay, kasbni o'zlashtirib olgunimga madadkor bo'lib turdilar*. Misoldagi yo'rgaklamoq so'zi umuman noto'g'ri qo'llanilgan. U o'rgatmoq, jalb qilmoq ma'nolarini bera olmaydi, ishga yo'rgaklamoq deb ibora tuzib ham bo'lmaydi.

Uchinchidan, so'zlarning ko'p ma'nolilik imkoniyatlaridan keng foydalanib, turli o'rinlarda ulardan har xil ma'no ottenkalarini berishga bo'ysundirish ham nutqda aniqlikka xizmat qiladi.

So'zlardagi ko'p ma'nolilikni payqamaslik fikrning noaniq, ba'zan noto'g'ri ifodalanishga olib kelishi mumkin: *Shahar bilan qishloq o'rtasidagi tafovut tobora qisqarayotir*. ("Guliston", j). Chunki bu so'z odatda uzunlik, miqdor va hajmning konkret o'lchoviga aloqadordir. Tafovut esa, abstrakt tushuncha bo'lib, unga nisbatan kamaymoq so'zini qo'llash ma'quldir.

Aniqlikni vazifaviy uslublar doirasida tushunish ham o'ziga xos. U so'zlashuv uslubida vaziyatga bog'liq bo'ladi. Rasmiy ish qogozlari stilida esa

aniqlik tildagi tayyor, qolipsiz iboralardan foydalanishni taqozo qiladi. Ilmiy uslubda atama va uning ifodalanish aniqligi asosiy o'rinda turadi. Publitsistik va badiiy nutq uslubida esa so'z va iboralar faqatgina badiiy-estetik vazifani bajarishdan tashqari yozuvchining maslagi va g'oyaviy maqsadiga mos kelishi va shunga xizmat qilishi kerak.

Ana shu sabablarga ko'ra so'z qo'llash aniqligining chegarasini belgilash nihoyatda murakkab ish bo'lib, u avvalo o'zbek tilini yaxshi, mukammal bilishni va uning ijtimoiy voqelikdagi qo'llanish doirasini yaxshi o'rganishni taqozo qiladi.

Nutqning mantiqiyliigi uning asosiy sifatlari - to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvoffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib boradi. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib etmasligiga, ba'zan umuman anglashilmasligiga olib kelishi mumkin. Nutqni tuzishda e'tiborsizlik natijasida mantiqsizlik yuz beradi. Quyidagi misolda: *Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish planlarini muddatdan oldin bajardilar.* Gapda so'zlarning tartibi to'g'ri bo'lmaganligi, "Olti oylik" birikmasining "sotish" so'zidan keyin kelmaganligi tufayli mantiqqa putur etyapti, hatto xato fikr yuritilmoqda.

Uslubiy me'yorga amal qilish, birinchi navbatda birikmalar o'rtasidagi grammatik aloqani to'g'ri shakllantirishdir. Quyidagi misolda: *Endi kuy va raqsar tinglab dam oling.* ("Televideniedan"). Kuy tinglash mumkin, ammo raqsni tinglab bo'ladimi? Kuy va raqs so'zlarining diktora tomonidan avtomatik tarzda uyg'unlashtirilishi va mantiqiylikning buzilishiga olib borgan. *Hammomda qatiq va shisha idishlar iste'hmol qilish ma'n etiladi.* ("Mushtum") misolida ham shu gapni aytish mumkin.

Ba'zan esa so'zlar tushirib qoldiriladi. Masalan: *22-sakkiz yillik maktab bufetchisi Toji Ibrohimov bir kitobga 25 tiyindan qo'yib sotmoqda.* ("Mushtum"). Kitobchami yoki kitobning narxigami? So'zlarning bunday tashlab ketishlar ayrim

hollarda qo'pol xatoliklarga olib kelishi ham mumkin: *Oyposh xolaga gorchechnik qo'yib bo'lib, ketmoqchi edi, Davron uni qo'yarda-qo'ymay choyga o'tkazdi.* (Jamoliddinova).

Gapdagi so'zlar, birikmalar tartibining nutq mantiqiyligida ahamiyati katta. Yana bir misolga e'tibor beraylik: *Suratga olingan akula quruqlikdagi sut emizuvchilarga o'xshab, tuxum quymaydi, balki tirik bola tug'adi.* ("Fan va turmush"). Shu holatda gapdan quruqlikdagi sut emizuvchilarga o'xshab, o'lik bola tug'ar ekan, degan xulosa chiqarishimiz mumkin. Muallif esa aslo, bunday demoqchi emas. Shunday ekan, gap "Suratga olingan akula tuxum qo'ymaydi, balki quruqlikdagi sut emizuvchilarga o'xshab tirik bola tug'adi" tarzida tuzilganda maqsadga muvofiq bo'lar edi. *Tashabbuskor rayon mehnatkashlari "ichki rezervlarni ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga safarbar etmoqdalar"* misolida ham so'z tartibining noto'g'riligi oqibatida mantiqqa xalal etgan. Tashabbuskorlik mehnatkashlarga tegishli bo'lishi kerak edi.

Nutqning mantiq talabiga muvofiq gaplar o'rtasida ham izchillik bo'lishi, ularning birida bayon etilgan fikr ikkinchisida davom ettirilishi kerak. Gaplar o'rtasida fikriy izchillik yo'qolishi bilan mantiqiylikka putur etadi.

Tushuncha mantiqiyligi alohida olingan matnda fikriy ketma-ketlik, mantiqiy izchillik bo'lishini taqozo qiladi. Ammo bu talabni nutqiy jarayonning hamma ko'rinishlarida ham o'rta qo'yib bo'lmaydi. Masalan, vazifaviylik uslublarda, xususan, ilmiy va badiiy nutq uslublarda bu talabga qanday amal qilinishini olib ko'raylik. Ilmiy uslubda yozilgan asarlar yaxlit bir tuzilishiga ega. Unda kirish, asosiy qism va xulosa mavjud bo'lib, ular yagona bir xalqaga birlashadi. Badiiy nutq tuzilishi esa bir oz boshqacha. Aytaylik, fikrlar bir maromda bayon etib kelindi-yu, birdaniga uzilish yuz beradi va endi boshqa voqealar hikoya qilinib ketiladi.

Bu narsa go'yo mantiqiy izchillikka putur etkazganday ko'rinsa-da, aslida unday emas. Badiiy asarlarda, xususan qissa, roman kabi janrlardagi keng

rejalilik tasvir qurilishini ana shunday tuzishni taqozo qiladi. Mantiqqa putur etmaganligi bunday asarlarning oxirida ma'lum bo'ladi.

6- mavzu: O'qituvchi nutqi madaniyati va nutqning uslubiy turlari.

Reja:

1. Til boyliklarini ishlatishdagi xilma – xillik
2. Nutq uslublari
3. Nutq uslublarining o'ziga xos xususiyatlari
4. O'qituvchi nutqining uslubi
5. O'qituvchining nutqiy faoliyati

Tayanch tushunchalar:

Til boyliklari, nutq uslublari, so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub, ritorik so'roq gap, ilmiy atama.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik sa'hati. T., IIV, 2002.
2. Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. T., Ma'naviyat, 1999.
3. Rasulov R, Mo'yidinov Q. Nutq madaniyati. T., 2004.
4. Safaev N., G'offorov B. Muomala sirlari. T., Navro'z, 1992.
5. Siddiq Mo'min. So'zlashish san'ati. Farg'ona, 1997
6. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., Ma'naviyat, 1999
7. Qo'ng'urov R, Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T., O'qituvchi 1992.

Til boyliklaridan har kim o'zicha foydalanib so'zlaydi. Bir tur so'zlar va tilga tegishli boshqa belgilar bir nutqda ko'proq ishlatilgani holda, boshqa nutqda uchramaydi. Boshqa bir nutq o'zining so'z boyligi va gaplarning qurilishi, ohangi bilan uchinchi bir nutqdan ajralib turadi. Til boyliklarini tanlab ishlatishga qarab nutq ko'rinishlari bir necha turga ajraladi. Ana shu xilma xillik *nutq uslublari* deb ataladi. Nutq uslublari aloqaning maqsadiga muvofiq amalga oshuvi yo'lida

so'zlovchining til boyliklaridan tanlab foydalanishi tufayli nutqning tarixan shakllangan ko'rinishidir.

Quyidagi misollar orqali nutq uslublarini tasavvur qilsa bo'ladi:


Rasmiy uslub: *"..2-modda. Har bir inson har qanday tafovutlaridan qathiy nazar, ya'ni irqi, terisining rangi, jins, tili, dini, siyosiy yoki o'zga e'tiqodlari, moddiy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy yoki boshqa mavqeiga qaramasdan, ushbu Dekloratsiyada e'lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yoxud hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro statusiga ega ekanligi asosida bu hudud mustaqil, vosiylidagi, o'z-o'zini idora qilmaydigan yoxud suverniteti qaysidir jihatlaridan cheklab qo'yilganidan qat'iynazar, biron bir darajada odam ajratilishiga yo'l qo'ymasligi kerak."*

Badiiy uslub: *"Jonginam, axir sizga ne gunoh qildimki, menga buncha sitamlar qilasiz? Kecha aytgan joyingizga borib, qosh qorayguncha kutdim, kelmadingiz. Kutgandan yomoni bo'lmas ekan."*

Ilmiy uslub: *"Sistem tilshunosligida gapning sintaktik struktura unsurlari gap bo'laklari yoki sintatik pozitsiya nuqtai nazaridan, propozitiv struktura uslublari esa ob'ektiv reallik strukturasiga izomorflik nuqtai nazaridan, kommunikativ (aktual) struktura tema (ma'lum) va rematik (yangi) nuqtai nazardan o'rganiladi."*

Bu nutq parchalarining har bir grammatik kurilishi, leksikasi, ohangi jihatidan bir-biridan keskin ajralib turadi. Birida rasmiy nutqqa xos leksika asosiy o'rinni egallaydi. Uslubshunoslikka bagishlangan asarlarda nutqning quyidagi uslublari ko'rsatiladi.:

1. So'zlashuv uslubi.
2. Rasmiy uslub.
3. Ilmiy uslub.
4. Publitsistik uslub.
5. Badiiy uslub.



Har bir uslub o'ziga xos tizim bo'lib, boshqa uslublardan ko'pgina belgilari bilan ajralib turadi.

So'zlashuv uslubi. Bu uslub o'z leksikasi, fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi bilan xalqning oddiy so'zlashuv tilini o'zida aks ettiradi. So'zlashuv uslubi uchun oddiylik, soddalik, betakkaluflik, hayajonlik xosdir. Xalq orasida keng tarqalgan “qosh qorayguncha,” “uchchiga chiqqan” kabi frazeologizmlardan: ona, osh, tuz, er, bola, kun, jo'ra, omon, og'ayni, jonginam, oqshom, erta-matan kabi so'zlardan: - o'vdi (boruvdi), -chidi (o'quv-chidi), -iydi (boriydi, zo'riydi), -chi (moshinachi), – qira (sirqiramok, oqarinqiramok) kabi yasovchilardan, gapning dialogik, to'liqsiz, bir tarkibli, so'z-gap kabi shakllaridan foydalanish so'zlashuv uslubida bir qadar ko'proq uchraydi.

Rasmiy uslub. Bu uslub rasmiy hujjatlar til xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. E'lonlar, qarorlar, sud va davlat idoralari hujjatlari shu uslubda yoziladi. Rasmiy uslub hayotda juda keng qo'llaniladi. Shuning uchun uning lug'ati rang - barang so'zlaridan tashkil topadi. Masalan:

E'lon!

Bugun kech soat sakkizda mahalla xotin-qizlari kengashining navbatdan tasqari yig'ilishi bo'ladi.

Kun tartibi:

Usmon Abrorovning oiladagi xulqi va mahalla erkaklarining galdagi vazifalari.

Barcha kengash ahzolarini qatnashishlari shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.

Ro'za hayitini dam olish kuni deb e'lon qilinishi to'g'risida.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi musulmonlarining istak va xohishlarini inobatga olib hamda fuqarolar o'rtasida mehr-oqibatni barqarorlashtirish maqsadida diniy bayram- Ro'za hayit (“Iyd al-fitr”) ni bu yil 4 aprelg' kuni dam olish kuni deb tayinlansin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

PREZIDENTI I. A. KARIMOV.

Toshkent shahri.

2002 yil 27 mart.

Ilmiy uslub. Ilmiy uslub fanning turli sohalariga aloqador soʻz va atamalarni koʻproq tasarruf qilish, bayonning koʻproq mantiqiy dalillariga suyanish bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Bu uslubda tabiat va jamiyat hodisalari aniq, qandaydir qoidalar, formulalar asosida ifodalanadi. Ilmiy bayonda fikr mantiqiy va ashyoviy dalillar bilan mustahkamlanib boradi. Ilmiy uslubda toʻliqsiz gaplar, bir tarkibli gaplar soʻz-gaplar deyarli uchramaydi. Soʻzlashuvning qisqa dialog turi ham ilmiy uslubda yozilgan asarlar uchun begonadir.

Ilmiy uslubning ilmiy va ilmiy - ommabop koʻrinishlari bor. Ilmiy ommabop bayon oʻzining leksik tarkibi va sintaksisi bilan xalq ommasiga moʻljallangan boʻladi. Bunday nutqda fanning maxsus sohalariga aloqador atamalar kamroq ishlatiladi, tilga olinganlariga izohlar berib boriladi:

“Hozirgi davr fonetikasida ikki asosiy usul mavjud: subʻektiv va obʻektiv usul. Subʻektiv usul talaffuzni bevosita (koʻrish va eshitish) kuzatishdan iborat. Bu eng qadimiy va doimo qoʻllash mumkin boʻlgan usuldir...”

Texnik apparatura yordamida yaʼni obʻektiv usullar yordamida aniqlanuvchi artikulyatsion - akustik xususiyatlar eksperimental-fonetik tekshirish yoki nutqni instrumental tasnif etish deb yuritiladi.”

“Jismning harakati toʻliq takrorlanadigan eng kichik vaqt oraligʻi tebranishlar davri deyiladi. Davrni siklik chastota orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$T=2”$$

Publitsistik uslub. Davrning ijtimoiy-siyosiy dolzarb masalalarini joʻshqinlik bilan aks ettirish publitsistik uslubga xosdir. Tarixiy yoki boshqa har xil dalillarni nutqqa kiritib, mantiqiy umumlashmalar chiqarish yoki bu ishni tinglovchiga havola etish, fosh etilgan shaxs yoki hodisalar ustidan kinoya, kesatiq, piching hamda qochiriqlar qilish, ritorik, soʻroq gaplardan foydalanish publitsistik nutqni jonli, taʼsirchan, hayajonli qiladi. Shuni aytish kerakki, har bir publitsistik nutq,

albatta, shulardangina iborat bo'ladi, degan gap emas. Publitsistik nutqda muallif voqelikka nisbatan faol munosabatda bo'ladi.

Uning hayotga, voqelikka bo'lgan bunday munosabati dalillarni tanlashda, ularni tahlil qilishda, tilning emotsional - ekspressiv vositalarini tasarruv etishda ko'rinadi.

Publitsistik nutqda obrazlilikka katta e'tibor beriladi. Tilning tasviriy vositalaridan keng foydalaniladi. Til vositalarini tanlash mantiqiylik va emotsionallik talabiga qarab amalga oshadi. Publitsistik nutqqa misol sifatida A. Qodiriyning 1920-1936 yillarda yozilgan "Hoy, er yutgur..." ("Mushtum") "Oqsoqlangan emish" kabi Hamid Olimjonning Vatan urushi yillarida bosilgan "Men o'zbek xalqi nomidan so'zlayman!", "Qaytish", "Do'stligimiz haqida" kabi asarlarini ko'rsatish mumkin.

Badiiy uslub. Badiiy uslub nutqning boshqa uslublaridan dastlab o'zining obrazlilik va estetik ta'sir etish vazifasi bilan ajralib turadi. Badiiy nutqda til leksikasining hamma qatlamlari ishtirok etadi. Chunki yuqorida zikr etilgan uslublar ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasini ifodalasa, badiiy uslub inson faoliyatining barcha qirralarini o'zida aks ettiradi, hammaga taalluqli bo'ladi. Unda turli kasb-kor, fan-texnika, xalqning maishiy hayotiga tegishli rang-barang so'zlar qo'llaniladi. Bu uslubda til vositalari obrazlar va manzaralar yaratadi, kishilarga estetik oziq berish uchun xizmat qiladi.

Badiiy uslub uchun shaxsiy obrazli so'z ishlatish xarakterlidir. Har bir muallif o'ziga xos so'z ishlatish usullaridan foydalanadi. Bu bilan o'ziga xoslikka, asarning o'qimishli bo'lishini ta'minlashga intiladi. Badiiy nutq hamma narsaning yangi, ohori to'kilmagan, boshqalar ishlatmagan bo'lishligini xohlaydi. Shu tufayli, shoir va adiblar hammaga ma'lum til vositalaridan o'zigagina xos usulda foydalanishga harakat qiladilar. Shaxsiy obrazlilik publitsistik uslubga ham xosdir. Obrazlilik so'zlashuv uslubida ham bo'ladi. Lekin ular ko'pchilik tomonidan ko'p martaba ishlatilgan, "qotib qolgan", "qoliplashgan" holda amal qilgan badiiy uslubda obrazlilik yangi, shirador bo'ladi. Chunonchi, Uyg'unning so'z qo'llashdagi o'ziga xosligi badiiy vositalarning yangiligi, "ohori to'kilmaganligi"

quyidagi parchada shundoq ko'rinib turadi:

Kumush choyshab yopib dalalar,
Qor qo'ynida uxlab yotadi.
Ufqlarga qizil xol tashlab,
Zar soch yozib quyosh botadi.
Goh bulutlar ko'kda yastanib,
Yerga oq yaproqlar qo'yadi.
Izg'irinlar o'ynab -quvnashib,
Yaproqlarni quchib suyadi.
Goh uzoqdan oq - zar ko'ylakda,
Ko'rinadi tog'lar tepalar.

O'qituvchi ish faoliyatida fikrni ifodalash usullari.

O'qituvchining nutqi ta'lim va tarbiya berishning asosidir. Uning nutqi imkon boricha sintaktik jihatdan sodda, jozibador, ta'sirchan tuzilishi lozim. Har qanday bilim va tarbiya, asosan, o'qituvchining dars hamda darsdan tashqari kundalik nutqi orqali berib boriladi. Nutqda, u qanday shaklda bo'lmasin, bizning qadriyatlarimiz qattiq xurmat qilinishi lozim.

Pedagogik nutqiy muloqotning o'ziga xosligi o'qituvchining hamma erda, har qanday sharoitda ham tarbiyachi ekanligi bilan xarakterlanadi. Pedagog o'z tarbiyalanuvchilari bilan ko'proq avditoriyada, darsda nutqiy muloqotda bo'ladi. Uning nutqi ilmiy pedagogik mazmun kasb etadi. Bunday nutqda ilmning turli sohalariga oid qoidalar, atamalar, xulosalar aks etadi, har bir narsa o'z o'rnida, me'yorida bo'ladi.

O'qituvchi o'z ish faoliyatida fikrni ifodalashning xilma-xil shakllari va janrlaridan foydalanadi. Ularning har biri til materiallari asosida yuzaga keladi.

Boshlang'ich sinf oqituvchisi ko'proq savol - javobning dialog shaklidan, o'g'zaki bayon, muommoli shakllaridan foydalanadi. Atamalarga, yangi so'zlarga berilgan izohlar sodda, o'quvchi hazm qiladigan sintaktik qurilmalarda beriladi. Qoida va nazariyalar hayotiy, o'quvchiga yaqin misollar bilan tanishtiriladi.

6- mavzu: Nutq madaniyati va o'qituvchining nutqi .Ta'lim jarayonida nutq madaniyati masalalari. Yozma nutq madaniyati.

Reja:

1. O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda muallimning nutqi
2. O'qituvchi ish faoliyatida fikrni ifodalash usullari.
3. Nutqning og'zaki va yozma shakllari
4. Og'zaki va yozma bayonning xususiyatlari

Tayanch tushunchalar:

Pedagogik nutqiy muloqot, fikrni og'zaki va yozma bayon qilish: tasvir, hikoya qilish, mulohaza, suhbat, muhokama, munozara, notiqona so'zlash, tabrik nutqi, bayon, konspekt, siqiq xulosa, annotatsiya, otziv, referat, sharh, biografiya, avtobiografiya, tavsifnoma, intervg'yu, mahruza, hisobot, maktub, kundalik.

Kelajak avlodni tarbiyalashda o'qituvchi mas'ul hisoblanadi. Uni kamol topishida o'qituvchining dunyoqarashi ongi, madaniyati, nutqi belgilovchi vositalar sanaladi. O'qituvchilik kasbi yuksak ma'naviyatni, insonparvarlikni, xohlaydi.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda muallimning nutqi katta rol o'ynaydi. Shuning uchun uning nutqi hamma vaqt g'oyaviy yuksak, ravon, yumshoq, dilkash bo'lishi lozim. Nutqda va ishda subutsizlik o'qituvchi uchun noloyiqdir. Har bir nutq bolalarning yosh xususiyatlarini, bilimi va tushunchasini nazarda tutib tuzilishi shart. Shu bilan birga o'qituvchining nutqi yosh avlod ko'z oldida uni o'rab olgan moddiy va ma'naviy dunyoning yangi qirralarini ochib berishni maqsad qilib qo'yadi. O'qituvchining nutqi ta'lim va tarbiya berishning asosidir.

O'qituvchining nutqi imkoni boricha sintaktik jihatdan sodda, jozibador, ta'sirchan tuzilishi lozim. Har qanday bilim va tarbiya, asosan, o'qituvchining dars hamda darsdan tashqari kundalik nutqi orqali berib boriladi. Nutqda, u qanday shaklda bo'lmasin, bizning qadriyatlarimiz qattiq xurmat qilinishi lozim.

Pedagogik nutqiy muloqotning o'ziga xosligi o'qituvchining hamma erda, har qanday sharoitda ham tarbiyachi ekanligi bilan xarakterlanadi. Pedagog o'z

tarbiyalanuvchilari bilan ko'proq avditoriyada, darsda nutqiy muloqotda bo'ladi. Uning nutqi ilmiy pedagogik mazmun kasb etadi. Bunday nutqda ilmning turli sohalariga oid qoidalar, atamalar, xulosalar aks etadi, har bir narsa o'z o'rnida, me'yorida bo'ladi. Atamalarga, yangi so'zlarga berilgan izohlar sodda, o'quvchi hazm qiladigan sintaktik qurilmalarda beriladi. Qoida va nazariyalar hayotiy, o'quvchiga yaqin misollar bilan tanishtiriladi.

7- mavzu :Fikrni og'zaki va yozma bayon qilish

Reja

1. Tasvir, og'zaki bayon etish usullari
2. Fikrni og'zaki bayon etish usullari
3. Fikrni yozma bayon etish yo'llari

Tayanch so'z va iboralar:

Til, nutq, matn, tasvir, hikoya qilish, mulohaza, suhbat, muhokama, munozara, notiqona so'zlash, tabrik nutqi, bayon, konspekt, siqiq xulosa, annotatsiya, otziv, referat, sharh, biografiya, avtobiografiya, tavsifnoma, intervg'yu, mahruza, hisobot, maktub, kundalik.

Til - mahlum kishilar jamoasi a'zolarining muloqoti uchun muhim va asosiy vosita hisoblangan o'ziga xos belgilar tizimlaridan biri bo'lib, jamiyatda tafakkurning rivojlanishi uchun, madaniy tarixiy an'analarni avloddan-avlodga etkazish uchun xizmat qiladi.


Nutq- ifodalangan ma'lumot talabiga mos holda til qoidalari asosida tuzilgan til belgilarining tartibidir. Til nutqqa aylangach, moddiy ahamiyat kasb etadi. Nutq - nutq (a'zolari) organlari harakatining natijasi sifatida paydo bo'ladi. Nutq a'zolarining harakati nutq faoliyati hisoblanadi. Nutq faoliyati deganda inson organizmining nutq tuzish uchun zarur hisoblangan ruhiy-fiziologik ishining yig'indisi tushuniladi.

Aniq aytilgan (yoki yozilgan) bir gap yoki o'zaro mantiqiy bog'langan

gaplar yig'indisi nutqiy asar deyiladi: "Nutqiy asar" tushunchasi og'zaki yoki yozma nutqning har qanday parchasini ham, xalq og'zaki ijodi asarlari va badiiy yozma adabiyotning tugallangan asarlarini ham o'z ichiga qamraydi. Har qanday nutqiy asar matn sifatida yuzaga chiqadi.

Matn deb u yoki bu holda tugallangan mazmun (mahno) va nutqning birligini o'zida shakllantirgan hamda ifodalagan og'zaki yoki yozma asarga aytiladi.

Matnning belgilari quyidagilar:



So'zlovchi matn mazmunini turli usullarda yuzaga chiqarishi mumkin. Bunda uch janr-tasvir, hikoya qilish, mulohaza alohida ajralib turadi.

Tasvir - nutqda ifodalangan narsa yoki hodisani maxsus til vositalari orqali harakatlash, uning xususiyatlarini, sifatlarini ko'rsatish usuli tasvir deyiladi. Tasvir fikr yuritiladigan shaxs, narsa yoki voqea-hodisani tinglovchi tasavvurida yorqin shakllantirish uchun ishlatiladi. (Misollar beriladi.)

Hikoya qilish. Bo'lib o'tgan va yuz beradigan voqea-hodisalarni batafsil so'zlash hikoya qilish hisoblanadi. Kichik hajmdagi nasriy asarlar, katta

asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilishda voqealar batafsil yoki ma'lum qisqartishlar bilan bayon etilishi mumkin. Bunda har bir narsa va hodisa o'z nomi, sifatlari bilan bayon etiladi. (Misollar)

Mulohaza. Kuzatilgan, eshitilgan yoki o'qilgan narsalar ustida fikrlash, uning turli tomonlarini ko'z oldiga keltirish mulohaza hisoblanadi. Kishi mulohaza orqali yuz bergan bergan voqealar haqidagi haqiqatni topa oladi. Buning uchun mulohaza to'g'ri, ilmiy asosda bo'lishi lozim. "Narsalarning haqiqatini bilish faqat farosat yo'li bilan amalga oshadi" (Ibn Sino).

Yuqoridagilarning barchasi o'qituvchi ish faoliyatiga bog'lanadi.

Fikrni og'zaki bayon etganda o'qituvchi suhbat, muhokama, munozara usullaridan foydalanadi.

Suhbat. Mahlum bir mavzu yuzasidan dialog tarzida ikki yoki bir necha kishi o'rtasida bulib o'tgan nutqiy muloqot suhbat deyiladi. Suhbatning xususiyati shuki, suhbatdoshlar bir-birlariga savol beradilar va savollarga javob qaytaradilar. Bu suhbat mahruzadan farq qiladi. Mahruza monologik nutqdir.

Muhokama. – Ma'lum bir masala yuzasidan ko'pchilikni fikrini to'plashni, ma'lum to'xtamlarga kelishni anglatadi.

Munozara. - Biror masala yuzasidan taraflarning bahsini, tortishuvini anglatadi. Bahs jarayonida har bir ishtirokchi o'zining haq ekanligini isbotlashga intiladi.

Notiqona so'zlash. Aytilayotgan fikrning tinglovchiga etib borishi va uning xulqiga ta'sir etishi notiqning so'zlash mahoratiga bog'liqdir. Notiqona nutqni maqsadi va xususiyatlariga ko'ra tashviqiy, tanqidiy, tabrik nutqlariga ajratish mumkin.

Tashviqiy nutq deb muallif ko'zda tutgan biron voqea-hodisani bajarishga tinglovchilarni dahvat etuvchi, undovchi nutqqa aytiladi. Tashviqiy nutqda xalq hayotidan, tarixidan, odat, udumlardan va barcha vositalardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Tanqidiy nutq yuz bergan hodisalar, shaxslarning hatti-harakatlariga e'tirozli munosabatda bo'luvchi nutq tanqidiy nutq deyiladi.

Tabrik nutqi to'ylarda, tantanalarda, yubileylarda, tugilgan kunlarda so'zlanadigan nutq tabrik nutqidir. Tabrik nutqi shaxs va hodisalarning yaxshi xususiyatlarini ko'rsatishga, ularni maqtashga qaratilgan bo'ladi.

Fikrni yozma bayon etish.

Bayon berilgan matn mazmunini o'z so'zlari bilan qayta yozishdir. Bayonda berilgan matn asosida yangi matn yaratiladi.

Saylanma bayon. Berilgan matndan ma'lum mavzuga mos saylab foydalanib yozilgan bayon saylanma bayon deyiladi. To'liq bayon etilganda, uning kerakli joylari haqida gapiriladi, xolos.

Konspekt bayonning ko'rinishlaridan biridir. Konspekt 3 xil bo'ladi: to'liq, qisqa, tezisli. To'liq konspektida matnning mazmuni muallif fikrlariga ba'zi bir izohlovchi gaplar kiritilishi orqali keng bayon qilib beriladi. Qisqa konspektida matndagi eng muhim deb hisoblangan fikrlar bayon etiladi. Tezisli konspekt manbaning asosiy qoidalarini, eng muhim fikrlarini ajratib olishdir.

Siqiq xulosa ma'ruza yoki boshqa asarlarda keng va atroflicha dalillar bilan bayon etilgan fikrlarning 3-4 gapli yakunidir.

Annotatsiya. Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabardir.

Otziv (fikir) saylanma bayonning yana bir turi otzivdir. U badiiy, ilmiy, metodik va boshqa asarlarga berilgan bahodir.

Referat. Biror ilmiy, metodik, pedagogik mavzudagi asarning qisqacha mazmuni haqidagi bayon referat hisoblanadi.

Sharh (abzor) - referati ilmiy va boshqa asarlarga sharh berish, yahni uning umumiy xususiyatlarini qisqacha bayon qilib berishni ko'zda tutadi.

Biografiya va avtobiografiya. Kishilarning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi bayon biografiya deyiladi.

Tavsifnoma - kishilarning ijtimoiy faoliyati, jamiyatda tutgan o'rnini haqidagi muhokama tarzida aytilgan yoki yozilgan bayon tavsifnoma deyiladi.

Intervg'yu. Matbuotda e'lon qilish, radio eshittirish yoki televideniya foydalanish uchun muxbirlarning biror kishi bilan o'tkazgan suhbat, shu

suhbatning matbuotda e'lon qilingan matni intervg'yu deb ataladi.

Ma'ruza. "Ma'ruza" so'zi odatda, ikki ma'noda ishlatiladi:

1. Rahbar yoki boshliqqa og'zaki yoxud yozma berilgan axborot.
2. Biror mavzu yuzasidan jamoatchilik oldida berilgan axborot.

Lektsiya. Oliy o'quv yurtlarida, omma oldida biror mavzu yuzasidan bayon tarzda o'tkazilgan dars yoki mashg'ulotdir. Shu mashg'ulotda tinglangan nutq ham lektsiya deb yuritiladi.

Lektsiya ikki xil:

1. Monologik lektsiya.
2. Dialog lektsiya.

Monologik lektsiyada notiq ma'lum mavzu bo'yicha o'zi bilgan narsalar haqida so'zlaydi. Dialog lektsiya tinglovchilarning faol ishtirokida o'tadi.

Hisobot. Xizmatga doir ma'lumot va mulohazalardan iborat hujjat bo'lib, unda biror yumush, biror soha bo'yicha qilingan ishlar haqida xabar beriladi.

Maktub. Bir kishining boshqa bir kishiga ma'lum qilgan o'z ahvoli, ichki kechinmalari yoki yuz bergan voqea-hodisalar haqidagi xabaridir.

Kundalik. Kishilar shu kungi hayotini, yuz bergan voqea-hodisalarni keyin eslash maqsadida xotira yozib boradilar.

Testlar:

1. Nutq madaniyati fani nimani o'rgatadi? (Mukammal javobni toping)

- a) to'g'ri nutq tuzishni o'rgatadi;
- v) chiroyli nutq tuzish yullarini urgatadi;
- S) chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlarini, sirlarini, til, til me'yori, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, kamchilik va xatolari, nutqiy asarlarning ko'rinishlari, nutqiy talaffuzga doir muommolarni o'rgatadi;d) nutq tuzish qonunlari, nutq, nutq uslublari, talaffuzga doir muommolar yuzasidan bahs yuritadi;e) a, v, s.

2. Nutq madaniyati fanining tekshirish ob'ekti.

- a) nutqning til qurilishi, adabiy til me'yorlari va nutqning aloqa uchun kerakli

fazilatlarini tekshiradi;

v) nutqning til qurilishi, uslublari, nutqiy asar ko'rinishlarini o'rganadi;

s) adabiy me'yordagi ikkilanishlarni bartaraf etadi;

d) o'zbek milliy adabiy tili faoliyatini, rivojlanishini tekshiradi;

e) a va d.

3. Nutq madaniyatining asosiy vazifasi.

a) adabiy til me'yorlari, uning tarixiyligi, taraqqiy etib borishi, undagi ba'zi unsurlarni eskirishi, yangi me'yorlarning paydo bo'lishini kuzatadi;

v) nutqning til qurilishi, adabiy til me'yorlarini kuzatadi;

s) adabiy til me'yordagi ikkilanishlarni bartaraf etadi;

d) a javob to'g'ri;

e) a va s javob to'g'ri.

4. XV asr adabiy tili me'yorlari qachongacha amal qilib keldi?

a) XVIII asrgacha;

v) XVII asrgacha;

s) XIX asrgacha;

d) XVI asrgacha;

e) XX asrgacha.

5. Nutqqa berilgan to'g'ri ta'rifni toping

a) nutq tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda mavjudlikka aylangan fikrdi;

v) nutq - nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'ladi;

s) nutq faoliyatining mahsulotidan, ma'lum shaklga kirishidan iborat;

d) nutq so'z shakllari, erkin birikmalar, so'z tartibi va gaplardan tashkil topadi;

e) a, v, s, d, javob to'g'ri.

6. Til madaniyati deganda nima tushuniladi?

a) Tilning so'z boyligi, sintaksisining taraqqiyoti va boyish darajasi, so'z ma'nolarining o'tkirligi, nutqiy ohangning rang - barangligi tushuniladi;

v) til madaniyati, til vositalarining boyligi va rang - barangligidan iborat bo'lib, shu tildan foydalanuvchilarning ongida yashaydi;

- s) to'g'ri javob yo'q;
- d) a javob to'g'ri;
- e) a, v, javob to'g'ri

7. Nutq madaniyati

- a) Nutq madaniyati shaxsning til imkoniyatlarini qanchalik o'zlashtirganligi;
- v) aloqaviy fazilatlar yig'indisi va tizimidir;
- s) shaxsning til imkoniyatlaridan sharoitga mos holda mohirona foydalana olishi;
- d) a, s javob to'g'ri;
- e) v javob to'g'ri

8. Tilning lisoniy imkoniyatlarini egallash necha bosqichda amalga oshadi?

- a) 2 bosqichda;
- v) 3 bosqichda;
- s) 4 bosqichda;
- d) 6 bosqichda;
- e) 5 bosqichda.

9. Nutqning to'g'riligi deganda nimani tushunasiz?

- a) Nutqning to'g'riligi uning adabiy til me'yorlariga mosligidir.
- v) uslubiy me'yorga rioya qilgan nutq to'g'ri nutqdır;
- s) grammatik me'yorga rioya qilgan nutq to'g'ri nutqdır;
- d) to'g'ri nutq adabiy tilning fonetik, talaffuz, lugaviy so'z yasalishi, grammatik uslubiy me'yorlarini mujassamlashtiradi;
- e) a va d

10. Har birimiz o'z ishimiz farzandlarimiz, Peshona ter to'kib oldik shaklu shamoyil.

(U.Abduazimova)

Ushbu parchada qanday adabiy til me'yori buzilganligini aniqlang?

- a) ishimiz so'zidagi - ning tushib qolgan;
- v) peshona so'zidagi - dan tushib qolgan;
- s) shaklu shamoyildagi - imiz tushirib qoldirilgan;

- d) adabiy me'yori buzilmagan;
- e) a va v javob to'g'ri

11. Birlarni bee'tiqod,

Birlarni riyo ko'rdim.

(T. Sulaymonov)

Ushbu parchada qanday adabiy til me'yori buzilganligini aniqlang?

- a) birlarni so'zidagi "i" tushib qolgan;
- v) riyo noto'g'ri ishlatilgan;
- s) 1-misrada -ni tushum kelishigi noto'g'ri qo'llanilgan;
- d) -riyo so'zidan oldin o'rin-payt kelishigi bo'lishi shart;
- e) barcha javoblar to'g'ri

12. "Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga erishmaydi" jumlasining muallifini toping.

- a) Aristotel;
- v) Suqrot;
- s) Kaykovus;
- d) Golovin;
- e) Platon.

13. Nutq aniqligi deganda nimani tushunasiz?

- a) so'zning adabiy talaffuz me'yorlariga mos kelishi;
- v) so'z qo'llash me'yorlariga rioya qilish;
- s) so'zning narsa va hodisalarda aks etgan borliq belgilari bilan mos kelishi;
- d) so'zning ma'nosi bilan nutqdagi ma'noning bir-biriga mos kelishi;
- e) v, s, d javoblari to'g'ri

14. Aniqlik necha xil bo'ladi?

- a) 2 xil: narsaning aniqligi. Tushuncha – aniqligi;
- v) 3 xil: fikr aniqligi, so'z aniqligi, hodisa aniqligi;
- s) 4 xil: narsa, tushuncha, fikr, hodisa aniqligi;
- d) aniqlik turlarga bo'linmaydi;
- e) barcha javoblar noto'g'ri.

15. Ifodali nutq deb qanday nutqqa aytiladi?

- a) tinglovchida qiziqish uyg'otgan nutq;
- v) sodda, tahsirchan, hammabop nutq;
- s) tashbehlarga, ifoda vositalarga boy nutq;
- d) o'z tuzilish xususiyatlari, fazilati, xossalari bilan tinglovchining fikr va tuyg'ularini, diqqatini yorqinlashtirgan, aytilganlarga qiziqish uyg'otgan nutq;
- e) barcha javoblar noto'g'ri

16. Tilshunos B. N. Golovin ifodalikka erishishning nechta shartini ko'rsatadi?

- a) 2 ta v) 3 ta s) 5 ta d) 6 ta e) 7 ta

17. Mantiqiylikka berilgan to'g'ri tahrifni toping.

- a) nutqda bayon etilgan fikrning qismlari va alohida fikrlarining o'zaro mos kelishi;
- v) so'zlar bilan predmetlik ma'nosining mosligi;
- s) har bir so'z o'ziga biriktirilgan ma'noni ifodalashi;
- d) fikrning tartibiga ahamiyat berish;
- e) barcha javoblar to'g'ri

18. Ushbu jumladan mantiqiylik buzilgan o'rinni aniqlang.

Ko'pgina turli masalalarni bevosita dars vaqtida hal qilishga to'g'ri kelishi boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

- a) ko'pgina so'zi ortiqcha;
- v) turli so'zi ortiqcha;
- s) bevosita so'zi noto'g'ri qo'llangan;
- d) to'g'ri kelishi noto'g'ri qo'llangan;
- e) a va v javob to'g'ri

19. Tilning tasviriyl vositalariga nimalar kiradi?

- a) troplar, tasviriyl shakllar;
- v) so'zlar, nutq uslublari;
- s) lugaviyl-ma'naviyl vositalar, troplar;
- d) tildagi lugaviyl so'zlar, lugaviyl-ma'naviyl vositalar;

e) o'xshatish, metafora, metonimiya.

20. Tilga berilgan to'g'ri ta'rifni toping.

a) ma'lum kishilar jamoasi ahzolarining muloqoti uchun muhim va asosiy vosita hisoblangan o'ziga xos belgilar tizimi;

v) til jamiyatda tafakkurning rivojlanishi uchun xizmat qiladi;

s) madaniy tarixiy an'analarni avloddan-avlodga etkazish uchun xizmat qiladi;

d) til - so'zlashuv vositasi;

e) a, v va s javob to'g'ri.

21. Nutqqa berilgan to'liq ta'rifni aniqlang.

a) ifodalangan ma'lumot talabiga mos holda til qoidalari asosida tuzilgan til belgilarining tartibidir;

v) nutq - nutq organlari harakati natijasida paydo bo'ladi;

s) nutq faoliyati-inson organizmining nutq tuzish uchun zarur hisoblangan ruhiy - fiziologik ishining yig'indisi;

d) a javob to'g'ri;

e) v va s javob to'g'ri.

22. Nutq uslublari deb nimaga aytiladi?

a) aloqaning maqsadga muvofiq amalga oshuvi yo'lida so'zlovchining til boyliklaridan tanlab foydalana olishi tufayli nutqning shakllangan ko'rinishidir;

v) til boyliklarini tanlab ishlatishga ko'ra nutq ko'rinishlarining xilma-xilligiga aytiladi;

s) to'g'ri javob yo'q;

d) a, v javob to'g'ri;

e) uslub o'ziga xos tizim bo'lib, bir-biridan farq qiladi.

23. Nutqning uslublari nechaga bo'linadi?

a) 6 taga; v) 5 taga; s) 4 taga; d) 2 taga; e) 7taga

24. So'zlashuv uslubiga nima xos bo'ladi?

a) oddiylik, soddalik, betakkalluflik;

v) o'z leksikasi, fonetikasi, morfologisi va sintaksisi bilan xalqning oddiy so'zlashuv tilini aks ettiradi;

s) to'liqsiz, bir tarkibli, so'z-gap shakllaridan foydalanish so'zlashuv uslubiga xos bo'ladi;

d) oddiylilik, soddalik, betakkaluflik hayajonlilik xos;

e) v, s, d javob to'g'ri.

